

## TARJIMASHUNOSLIKDA ADABIY TARJIMANING DOLZARB MASALALARI

**Asliddinova Sevinchbonu**

O'zDJTU Tarjimonlik fakulteti talabasi  
sevinchbonuasliddinova@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tarjima va tarjimashunoslikda yuzaga keladigan muammolarning dolzarbligi, xususan, adabiy tarjimada uchraydigan dolzarb muammolar, ularning tarjima jarayoniga ta'siri to'g'risida ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Tarjima, badiiy muammo, madaniyatlararo farqlar, she'r, til shakli, badiiy uslub, idiomatik ibora, maqol, emotsional va estetik ta'sir.

**Аннотация:** В данной статье изложена информация об актуальности проблем, возникающих в переводе и переводоведении, в частности, о важных проблемах, встречающихся в литературном переводе, и их влиянии на процесс перевода.

**Ключевые слова:** перевод, литературная проблема, межкультурные различия, стихотворение, языковая форма, художественный стиль, идиоматическое выражение, пословица, эмоциональное и эстетическое воздействие.

**Annotation:** This article provides information on the relevance of issues arising in translation and translation studies, particularly on critical problems in literary translation and their impact on the translation process.

**Keywords:** translation, literary issue, intercultural differences, poetry, language form, artistic style, idiomatic expression, proverb, emotional and aesthetic impact.

Tarjima bu ma'lum bir tildagi hujjatdir. O'tgan davrlar mobaynida doimiy ravishda ehtiyoj sezilgan va rivojlanib kelgan bu soha XX asrga kelib muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Ayniqsa, bu yillar o'zbek adabiyotida katta o'zgarish – tarjimashunoslik maxsus fan sifatida tadbiiq etila boshlandi. Aynan shu davr tarjimashunoslikning eng gullab yashnagan payti bo'ldi. Tarjima jarayonlari eng boshidan turli sohalar yuzasidan guruhlariga bo'lingan: ilmiy, badiiy, kasbiy va boshqalar. Tarjima sohasi ma'lum bir dolzarb muammolarga ega bo'lganligi sababli ko'pgina mutaxassislar ham tarjimani yo'nalishlarga bo'lib qilish kerakligi to'g'risida o'z qarashlarini aytib o'tishgan. Misol uchun, "Davra suhbat"larining birida tilshunos Abbas Irisqulov ta'kidlaganidek, "universal, hamma janrni bir xilda puxta biladigan, bu janrdagi asarlarni professionl tarzda tarjima qila oladigan tarjimon"ning yetishib chiqishi mumkin emas. Bas, shunday ekan, tarjimon va tarjimashunoslarni asosan ikki yo'nalishda: badiiy va kasbiy tarjima (ilmiy –texnik matnlar, sinxron tarjima kabilar) ixtisosligi bo'yicha tayyorlashga e'tibor berish lozim [1].

Bundan ko'rinib turibdiki, badiiy tarjimada nafaqat tarjimashunoslik doirasida, balki o'z doirasida ham ko'pgina murakkabliklar va muammolar uchrab turadi. Chunki badiiy matnlar murakkab til shaklini, idioma, jargon, boy lug'at va iboralarni o'z ichiga

oladi. Shuning uchun har bir soʻz va iboralarni tarjima qilayotganda ularning soʻz va maʼno nozikliklarini saqlab qolish, uni foydalanuvchiga toʻgʻri yetkazib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Budan shuni ham bilish mumkinki, badiiy tarjima nafaqat lingvistik mahoratni, balki turli maʼno va uslubni, madaniy maʼlumotga ega boʻlishni va til qoidalaridan yetarlicha maʼlumotga ega boʻlishni talab qiladi.

Shuning uchun ham tarjima va tarjimashunoslikning ichida eng koʻp saʼy-harakat talab qiladigani badiiy tarjima desak mubolagʻa boʻlmaydi. Tarjimon oʻzi yetkazmoqchi boʻlgan fikrlar foydalanuvchi yoki tinglovchining ijtimoiy, geografik va madaniy kelib chiqishini inobatga olgan holda tarjima qilishi kerak. Badiiy asarlar tarjimasi ana shuning uchun ham murakkabliklarga sabab boʻladi va qiyinchiliklarga ega. Quyida esa badiiy tarjimada yuzaga keladigan muammolar va bu muammolarning dolzarbligi toʻgʻrisida soʻz yuritiladi.

Matnning farqliligi. Badiiy matnlar bohqa matn va kontekstlarga nisbatan uslubi va maʼno jihatidan farq qilishi tabiiy. Chunki badiiy asarlar yaratilayotganda turli koʻchma maʼnolar, soʻzlarning shakldoshligi, idiomalar va maqollardan keng foydalaniladi. Bu esa tarjima jarayonida murakkablikni keltirib chiqaradi.

Bu borada Ergash Ochilov ham oʻz fikrida “asl mazmunni boshqa tilga berish jarayonida muqobil til vositalarini qidirib topish va muvofiq variant tanlash ijodiy xarakterga ega boʻlib, tarjima qiluvchi kishi, yaʼni tarjimondan ongli mehnatni ham talab qiladi” degani bejiz emas.

Madaniyatlararo farqlar. Soʻz muqobil til vositalarini topish borasida borar ekan, madaniyat tushunchasi ushbu mavzuga chambarchas bogʻliq. Adabiy asarlar muallif yashagan davr, jamiyat va madaniyatni aks ettiradi. Shunday ekan, bunday tarjimalarni boshqa madaniyatlarga xos bolgan iboralar, timsollar, urf-odat va anʼanalar bilan bogʻlab tarjimani aniq, toʻgʻri va meʼyorida yetkazishga katta muammolarning biri sifatida qaraladi. Chunki matnni madaniyatga xos ravishda tarjima qilibgina qolmay, tarjimon tarjimadan foydalanuvchiga nimani nazarda tutayotganini tushuntirib keta olishi kerak. Misol uchun, sharq madaniyatiga xos boʻlgan mavzudagi asar yoki asar parchasini gʻarb madaniyatining insoniga yetkazib berish odatdagidan koʻproq harakatni talab qiladi. Baʼzi hollarda esa tarjima paytida qoʻllanilgan ekvivalent ayni maʼnoni yetkazib bera olmasligi va natijada tarjima oʻz maʼnosida chiqmasligi mumkin. Hatto baʼzi hollarda madaniyatga oid davr iborolari mutlaqo boshqa fikrga olib kelish holatlari ham uchraydi.

Masalan, Mark Tvenning: “Travel is fatal to prejudice, bigotry and narrow-mindedness” gapi “Sayohat xurofot, taassub va tor fikrlilikni oʻldiradi” sifatida emas, “Sayohat odamni xurofot, taassub va tor fikrlilikdan ozod etadi maʼnosida tarjima qilinadi.

Badiiy uslubni saqlash. Muallifning oʻz tilida yozgan asaridagi janr va uslublar tarjima jarayonida vujudga kelishi mumkin boʻlgan yana bir muammolarga sabab boʻla oladi. Chunki tarjima qilish orqali asl asarning, matnning oʻziga xos uslubi, tili, yozuv ohangi oʻzgarmasligi, nafisligiga zarar yetmasligi kerak. Misol keltirish uchun sheʼriy asar yoki parchalarni koʻrsatsa boʻladi. Sheʼrlar tarjimasida qofiyalarni, ritmni va maʼno-mazmunni saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi. Asarning aynan yetkazib

bermoqchi bo'lingan qatlamlari tarjima jarayonida bo'rttirilmasligi yoki me'yorga yetmay qolishi kerak emas. Tarjima paytida bir tilning she'riy va badiiy uslublarni boshqa tilda muqobil va muvofiq ravishda o'girish juda katta mehnat va chigalliklarga olib keladi. Ba'zan shunday asarlar ham uchraydiki ularning tarjimasi o'z tilidagi lingvistik qoidalarining butunlay boshqa til qoidalariga aylantirilganligi va shu orqaligina tarjimon o'z maqsadi- ma'noni to'g'ri bera olishiga erishish mumkin. Badiiy tarjimada she'rlar tarjimasining mushkulligi va qiyinchiligini nazarda tutib mashhur tarjimon va rus shoiri V.A. Jukovskiy "She'riyatda mutarjim – muallifning raqibi" degan edi. Bundan ko'rinib turibdiki, badiiy adabiyot asarlarni boshqa bir tilga tarjima qilish jarayoni ko'pgina mashaqqatlarga ham sabab bo'lar ekan. Bu fikrning isboti sifatida G'. Salomov asaridagi quyidagi so'zlarini keltirish mumkin: "Tarjimon mavjud asarga yangi ijtimoiy, adabiy va milliy muhit sharoitida yangi hayot bag'ishlovchidir... Realistik tarjima talablariga ko'ra, tarjimon asl nusxaning san'at asari sifatida shakl va mazmun birligini qayta yaratishi, milliy xususiyatlarini saqlashi lozim" [ 2 ].

Madaniyat bilan bog'liq bilimning yetishmasligi. Tarjima jarayonida nafaqat madaniyatlar bilan bo'lgan o'xshashliklarni topish, balki madaniyatga oid bilimlarning yetishmasligi ham dolzarb masalalarning biri hisoblanadi. Kitobxonlar eng ko'p sotiladigan bestseller asarlar, jahon adabiyotining asarlari va yozuvchilari yoki tarixiy romanlarga qiziqishlari mumkin. Asarlar ko'pincha to'liq tushuncha bilan o'z madaniyatiga mansub o'quvchilar orqali to'liq o'zlashtiriladi. Chunki shu davr va mintaqada yashagan odam o'z mintaqasidan bo'lgan yozuvchini nimani nazarda tutayotganini yanada yaxshiroq tushunadi. Biroq boshqa ijtimoiy guruhga mansub, boshqa madaniyat vakili mazmun va mohiyatni to'liq tushunib yeta olmaydi. Bunday holatlar tarjima jarayonini yanada qiyinlashtiradi. Ya'ni madaniyatlar bilan bog'liq bilimlarning yetishmasligi faqatgina tarjimonga bog'liq bo'libgina qolmay, o'quvchidan ham ma'lum ma'noda bilim va ko'nikmani talab qiladi.

Til shaklining farqlanishi. Har bir til o'z xususiyatlari, sintaktik tizimi va lug'aviy boyliklariga ega. Shunday ekan, ba'zan qardosh tillar tarjimasi lingvistik tarafdin oson jarayonni ta'minlashga hissa qo'shsa, boshqa tillar orasida til va so'zlarning ishlatilishidagi farqlar qator chigalliklarga sabab bo'ladi, bu esa ma'noni to'liq ifoda qilishga to'sqinlik qiladi. Masalan, bir tildagi qisqa va sodda so'z yoki ibora boshqa bir tilda ko'p so'zli izohga ehtiyoj yaratadi. Buning natijasidagi uslubga zarar yetishi va muqobillik yo'qolish xavfi yuzaga keladi. Bundan tashqari, so'zlarning shakldoshlik, sinonimlik xususiyatlari boshqa tildagi boshqa ma'nodagi so'z bilan o'xshashlikni yoki bir tilning o'zida turli xil ma'nolarni bildirishi orqali muammolar yaratishi mumkin. Misol uchun, birgina "Boburnoma" asaridagi "o'ldi" so'zi 27 xil ma'noda ifodalangan ekan [ 3 ]. So'zlarning boshqa tillar bilan shaklan o'xshashligi va ma'noning farqli ekanligi yana bir muammoni hosil qiladi. Ayniqsa, tarjima jarayonida chalg'ish va noto'g'ri mazmunga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham bu turdagi so'zlar tarjimashunoslikning alohida bo'limi sifatida o'rganilayotgan bo'lsa ajab emas. So'zlar ayni ko'rinishda, bir tildagi ijobiy so'zning boshqa tildagi salbiy ma'no aks ettiruvchi so'z bilan o'xshash bo'lganligi tarjimonlarni chalg'ishiga sabab bo'la oladi. Buning yaqqol timsoli sifatida Zuhridin Ismoddinovning yozishiga ko'ra

“jo‘ra” so‘zi o‘zbek tilida erkaklarga nisbatan qo‘llanilsa, turkmanchada “dugona”-ayollarga nisbatan ishlatiladigan so‘zni anglatadi. [ 4 ]

Idiomatik iboralar va so‘z o‘yini. So‘z idiomalar borasida borar ekan, “idiom” so‘zining ma‘nosi Oxford Dictionary lug‘atiga ko‘ra, “ma‘nosi alohida leksik birliklarning ma‘nosidan farq qiladigan so‘zlar guruhi” sifatida tavsiflanadi. Ba‘zi holatlarda idiomalar tarjimadagina emas, o‘z til so‘zlashuvchilarida ham ma‘lum qiyinchililarni keltirib chiqaradi. Ularni so‘zma-so‘z tushunish nazarda tutilayotgan ma‘nodan yiroqlashishga olib keladi. Shunday ekan, bunday turdagi til vositalarini so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaydi. Shu bilan bir qatorda, boshqa tilda shunchaki ma‘nosini tushuntirib ketish ham maqsadga muvofiq emas. Bu nimani anlatadi? Bundan kelib chiqadiki, tarjimashunos o‘z tarjimasi davomida idiomalarga duch keladigan bo‘lsa, tarjima tilidagi idiomalarni, o‘z tilidagi idoma ekvivalenti bilan almashtirishi, o‘z tilida shunday ma‘no kasb etuvchi idimoga topishi kerak. Agar bunday idioma mavjud bo‘lmagan taqdirda ma‘nosini ifodalab ketishi mumkin bo‘ladi. Bu ham tarjimadagi muammoli vaziyatlarning biri hisoblanadi, chunki tarjimon ayni vaqtning o‘zida ham o‘z tilining, ham tarjima tilining xususiyatlari va so‘z boyligidan chuqur xabaror bo‘lishi kerakligini anglatadi.

Maqollar. Maqol bu ko‘pchilik hollarda ma‘lum bir vaziyatni bir necha so‘zlar bilan ifodalay olish xususiyatiga ega bo‘lgan, odatda boshdan kechirilgan tajribalarga asoslangan va maslahat berish ohangidagi qisqa shaklga ega jumla hisoblanadi. Vaqtlar davomida ma‘lum vaziyatlarni ayni ma‘noni ifodalash uchun ishlatilgan bunday jumlar hamma uchun ma‘noviy tushunchani hosil qiladi va tayyor holda ishlatiladi, yodlanadi. Shu bilan bir qatorda maqollar madaniy va mintaqaviy holat bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi. Ba‘zi bir hollarda ushbu madaniyat va mintaqa bilan birga din masalasi bilan ham bog‘liqlikni hosil qiladi hamda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan tushunarsiz holatlar ehtimolini ko‘paytiradi. Misol uchun, ingliz tilida ishlatilgan mashhur “Business before pleasure” maqoli o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z ayni holatda emas, balki ekvivalenti bilan “Mehnat, mehnatning tagi rohat” sifatida tarjima qilinadi. Bunday turdagi holatlar tarjima jarayonining murakkablashuviga asos bo‘ladi, ko‘pgina holatlarda muammolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham dolzarb muammolar qatoridan joy olgan. Yoki “Put your trust in God, but keep your power dry” maqoli Angliya urushi (1642-1652) davrida askarlar daryoni o‘q kukuni bilan kechib o‘tayotganda aytilgan. Undan kelib chiqadigan ma‘no esa askarlarni daryodan kechib o‘tayotganda Xudoga tavakkal qilishga, ammo olib o‘tayotgan o‘q kukunlarini ho‘l qilmaslikka, ehtiyotkor bo‘lishga chorlovni anglatgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, maqollarni tushunish va mazmunini anglab yetish uchun bir vaqtning o‘zida ham madaniy, ham tarixiy bilimlarni bilish kerak.

Emotsional va estetik ta‘sir. Adabiy asar o‘quvchida hissiyot uyg‘otadi. Tarjimon o‘z ishida ushbu ta‘sirni, emotsional holatlarni va estetik mazmunni asli holicha saqlab qola olishi kerak. Bu orqali tarjimon til bilimi yoki madaniy bilimga ega bo‘lish bilan birga ijodiy va madaniy nuqtayi nazardan asarning mohiyatini to‘liq anglab yetishi zarur, shundagina u o‘z tushunchalarini to‘g‘ri yetkazib bera oladi. Emotsional yondashuv borasida vujudga keladigan qiyinchiliklar tilning hissiy jihatlar, estetik



muvozanat kabilarga bog'lanadi. Har bir tilda hissiyotlarni ifodalaydigan, ularni to'liq tushuntirib bera oladigan o'ziga xos so'zlar mavjud, ular esa boshqa tilda o'z muqobiliga ega bo'lmasligi yoki muqobil varianti ayni hodisaga mos tushmasligi mumkin. Bunday holatlarda tarjima jarayoni, tarjima qilinayotgan asarning mazmun-mohiyati va uni anglash yanada murakkablashadi. Aynan shu sababdan ba'zi asarlar turli tillarda, turli darajada yoritilib beriladi, buning natijasida o'quvchining asarga bo'lgan fikri turli til vakillarida farqlicha bo'ladi.

So'z emotsionallik borasida borar ekan, hissiyotlarni yetkazib berishda turli badiiy vositalar qo'llaniladi, masalan, metafora, o'xshatish kabilar. Aynan shu vaqtda tarjima jarayonida ushbu vositalarning buzilish xavfi bor. Emotsionallikni saqlab qolish har doim ham hissiy va estetik ta'sirni saqlab turishni talab qilmaydi. Chunki ba'zi holatlarda ulardan birini tanlash kerak bo'ladi. Agar tarjimon hissiyotlarni to'liq yoritib berishga harakat qilsa va unga urg'u bersa, estetik elementlarning kamayib ketishiga sabab bo'ladi. Ba'zi bir hollarda esa estetik holatni barqaror saqlash hissiy mazmunning susayishiga olib keladi. Har ikki holatni barqarorlikda ushlab turish tarjima jarayonida uchraydigan muammolarning biri sifatida namoyon bo'ladi. Misol uchun, mashhur Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarini ingliz tiliga tarjima qilgan Mark Riss bilan bo'lgan suhbatda tarjimonga shunday savol beriladi: "Romanda tasvirlangan qaysi holatlarni tushunishda, qabul qilishda qiynaladingiz" degan savolga Mark Riss quyidagicha javob beradi: "...Savolingizga kelsak, kundoshlik, xonlik hokimiyati tartiboti va islom diniga aloqador ba'zi holatlarni tushuntirib berish qiyin bo'ldi..." [ 5 ]

Hozirgi kunda madaniyatlararo muloqotning kuchayishi adabiy asarlarni ko'proq tillarga tarjima qilinishini talab qilish bilan birga ko'plab boshqa millat vakillarining bir-birlarining tillarida yozilgan ilmiy, siyosiy va ijtimoiy mavzudagi asarlar kontekstlariga qiziqish bildirishiga asos yaratmoqda. Ayniqsa bu adabiyot sohasi doirasida jadal o'sish bilan davom etmoqda.

Tarjimalarda, asarlarda va ilmiy loyihalarning tarjima qilinishida yuzaga keladigan muammolar esa aynan shu sababdan dolzarblashib va ommalashib bormoqda. Ularni yanada osonlashtirish, tarjima jarayonlardagi kamchilik va murakkabliklarni bartaraf etish borasida esa ko'pgina olimlar, tarjimashunos mutaxassislar ilmiy ishlar olib borishmoqda. Bundan tashqari ushbu tarjima jarayonidagi qiyinchiliklar va muammolar, til bilan bir qatorda, tarjima tilining an'analari, millat va uning ijtimoiy holati, mintaqaga oid keng ma'lumotga ega bo'lish talab etiladi. Bu muammolarni chuqur o'rganish, ularning yechimini topishga harakat qilish, ularni tahlil qilish tarjima sohasini takomillashtirish bilan birga madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni ham takomillashtirishi mumkin. Buning natijasida badiiy tarjima kabi asarlar adabiyotning universal qadriyatlarini ochib berishga imkon yaratadi. Milliy madaniyatning va an'analarning boshqa millat vakillari tomonidan o'rganilishi va madaniyatga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi.

Umumiy fikr sifatida shuni keltirish mumkinki, tarjima jarayonida vujudga keladigan muammolarni umumiy ravishda hal qilish va muammolar murakkabligini soddalashtirish borasida tarjimonning mahorati muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda

Plexanovning tarjima jarayonida diqqat qaratilishi lozim deya ta'kidlagan uch shartini keltirib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Asar qaysi tilda yozilgan bo'lsa o'sha tilni mukammal bilish;
2. Asar tarjima qilinayotgan tilni mukammal bilish;
3. Tarjima qilinayotgan asardagi predmetlar to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lish.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, tarjima va tarjimashunoslik har bir davlat, millat va til uchun muhim o'ringa ega. Shu sababdan tarjima sohasini rivojlantirish e'tibor markazlaridan birida bo'lib keladi. Tarjima paytida sodir bo'ladigan muammolar va ularni hal qilish esa tillarning va millatlararo aloqalarning yanada o'sib borishiga, ko'proq e'tibor qaratilishiga yo'l ochib beradi. Hozirgi kunda ham tarjimashunoslik muammolarining dolzarbligi to'g'risida ko'pgina tarjimashunoslar ish olib bormoqda. Turli mamlakatlarda va xalqaro darajada bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar tarjima jarayonini rivojlantirish bilan bir qatorda tarjima sohasidagi muammolarning qanchalik dolzarbligini ham ko'rsatadi. Bunday turdagi sa'y-harakatlar natijasida xalqaro tashkilotlar dunyo miqyosida ko'plab ishlarni amalga oshirmoqda, jumladan, BMT va UNESCO kabi tashkilotlar tarjima sifatini oshirish uchun xalqaro standartlarni ishlab chiqmoqda, xalqaro forum va seminarlar tashkil qilinmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 2007-yil 29-sonidan. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/muhammadjon-xolbekov-badiiy-tarjima-muammo-va-yechim-2007>
2. G'. Salomov. Tarjima nazariyasiga kirish. –Toshkent: O'qituvchi, 1978.
3. Ergash Ochilov. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. -Toshkent – 2012
4. Isomiddinov Z. "Aldoqchi so'zlar bilan bahs" // Tarjima san'ati (Maqolalar to'plami). 5-kitob – Toshkent, 1980
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2018/09/20/otkan-kunlar/>